

4-SINF O‘QUVCHILARINING AXLOQIY FAZILATLARINI RIVOJLANTISH

Ismoilova Maxliyo Do‘sbekovna

Buxoro innavatsiyalar universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi II bosqich talabasi

+998500103018 ismoilovam284@gmail.com

“O‘zini mukammallashtirish-har qanday taraqqiyot va axloqiy rivojlanishning asosidir.” (Konfutsiy)

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, xususan 4-sinf bolalarining axloqiy va aqliy fazilatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Aqliy fazilatlarini rivojlantirish nafaqat bilim olish, balki mustaqil fikrlash, voqealarga turli tomondan qarash va xatolarini tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi. Dunyoqarashning mohiyati, turlari va ilmiy dunyoqarashning o‘rni tushuntirilgan. Shu bilan birga, dunyoqarashning ikki darajasi, kundalik hayotiy tajriba va ilmiy nazariy bilimlar, o‘quvchilarning aqliy rivojlanishida uzviy ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, 4-sinf o‘quvchilari, aqliy fazilat, axloqiy fazilat, dunyoqarash, ilmiy dunyoqarash, mustaqil fikrlash, fikrlashni rivojlantirish, hayotiy tajriba, ilmiy bilimlar

Article; This article discusses the issues of developing the moral and intellectual qualities of primary school students, especially 4th graders. Developing intellectual qualities includes not only acquiring knowledge, but also independent thinking, looking at events from different angles, and analyzing one’s mistakes. The essence, types, and role of worldview are explained. At the same time, it is emphasized that two levels of worldview, everyday life experience and scientific theoretical knowledge, are of integral importance in the intellectual development of students.

Аннотация; В данной статье рассматриваются вопросы развития нравственно-интеллектуальных качеств учащихся начальной школы, особенно учеников 4-го класса. Развитие интеллектуальных качеств включает в себя не только приобретение знаний, но и самостоятельное мышление, рассмотрение событий с разных точек зрения и анализ собственных ошибок. Объясняются сущность, типы и роль мировоззрения. При этом подчеркивается, что два уровня мировоззрения — опыт повседневной жизни и научные теоретические знания — имеют неотъемлемое значение для интеллектуального развития учащихся.

Keywords: Primary school, 4th grade students, intellectual virtue, moral virtue, worldview, scientific worldview, independent thinking, development of thinking, life experience, scientific knowledge



Ключевые слова: Начальная школа, ученики 4-го класса, интеллектуальная добродетель, моральная добродетель, мировоззрение, научное мировоззрение, независимое мышление, развитие мышления, жизненный опыт, научные знания

Boshlang'ich sinf – bu bola ta'limining eng muhim bosqichi bo'lib, aynan shu davrda o'quvchilar bilim olishning asosiy tamoyillarini o'rganadilar. Bu yoshda bolalar yangi ma'lumotlarni qiziqish bilan qabul qiladilar va o'rganish jarayoni ular uchun o'yin, tajriba qilish hamda izlanish orqali amalga oshadi.

Ammo bizni bir savol qiynaydi... Bu ham bo'lsa, boshlang'ich sinflarda ya'ni 4-sinf bolalarining axloqiy fazilatlarini qanday qilib rivojlantirishimiz mumkin?





1. Bolalar eng avvalo o'qituvchiga qarab o'rnak oladi. O'qituvchi halol, sabrli va mehribon bo'lsa, o'quvchilar ham shunday bo'lishga harakat qiladi.

2. Axloqiy mazmundagi hikoyalar, rivoyatlar, ibratli so'zlar bolalarga kuchli ta'sir qiladi.

Masalan, **Alisher Navoiy** shunday degan:

“Odamiy ersang, demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.”

Bu fikr bolalarda mehr-shafqat, boshqalarga yordam berish tuyg'usini rivojlantiradi.

3. • “Yaxshilik kuni” o'tkazish

- Bir-biriga yordam berish odatini shakllantirish
- Sinfda “rahmat aytish” va “kechirim so'rash” madaniyatini o'rgatish

4. Turli hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirish (masalan, do'stiga yordam berish, navbat kutish, kattalarga hurmat ko'rsatish) orqali bolalar to'g'ri xulqni amalda o'rganadi.

5. Yaxshi xulq ko'rsatgan o'quvchilarni maqtoV, kichik sovg'a yoki “eng odobli o'quvchi” nominatsiyasi bilan rag'batlantirish mumkin.

Aqliy fazilatni rivojlantirish – bu faqat bilimni ko'paytirish emas, balki:

- kengroq va chuqurroq o'ylash,
- voqealarga turli tomondan qarash,
- xatoni tan olib, fikrni yangilay olish,
- mustaqil xulosa chiqarish kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Shuning uchun dunyoqarashni o'zgartirish yoki kengaytirish ham aqliy o'sishning bir qismi hisoblanadi.

Shunday ekan, dunyoqarash haqida ham qisqacha ma'lumot berib o'tsak.

Dunyogarash faqat insongagina xos xususiyat bo'lib, hayvonot dunyosi boshga narsa, buyumlar va mavjudotlar uchun bu hayotdir.

Ularda dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi hagidagi ilmiy falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik diniy, qarashlari va tasavvurlari tizimidan iborat. Demak, dunyoqarash bu olam hagidagi yaxlit umumiy lashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida qancha ko'p



ma'lumotlarga, bilimga ega bo'lsa, ulamning dunyogarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi. Avvalo ta'kidlash lozimki ilmiy dunyoqarash turlicha bo'ladi. Turli kasb egalari turli xil dunyogarashga ega bo'ladi.

Dunyoqarash deb, shaxsning tabiatga, jamiyatga, o'zining ijtimoiy muhitdagi o'rniga, o'z-o'ziga, turli voqeliklarga munosabatini belgilab beradigan qarashlari, e'tiqodi, hayotiy tajribasi va faoliyat tamoyillarining tizimidir.

Dunyoqarash kishilarda olam haqida yaxlit umumlashtirilgan bilimlar, g'oyalar turkumini hosil qiladigan, ularni muayyan ijtimoiy guruhlar, sinflar, ommaviy harakatlar, davlatlar maqsadidan kelib chiqib baholaydigan va shunga qarab hayotdagi o'z-o'zini, amaliy faoliyat yo'nalishlarini, maqsadlarini aniqlab olishga imkoniyat beradigan ko'p qirrali va sermazmun tushunchadir.

Dunyoqarashning ikkita darajasi mavjuddir.

birinchisi, kishilarning kundalik hayotiy amaliy tajribasi hamda kasbiy faoliyati asosida to'plangan bilimlar, tasavvurlar, qarashlar tashkil qilsa,

ikkinchisini ilm-fan tufayli to'plangan nazariy bilimlar, g'oyalar yig'indisi tashkil etadi. Ularning ikkalasi bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Dunyoqarash quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1) mifologik dunyoqarash;
- 2) diniy dunyoqarash;
- 3) falsafiy dunyoqarash;
- 4) ijtimoiy-siyosiy dunyoqarash;
- 5) estetik dunyogarash;
- 6) ilmiy dunyoqarash;
- 7) hayotiy tajriba

Ilmiy dunyoqarash - bu ilmiy metodlar yordamida ko'p bor tekshirish, umumiy holda insoniyat tajribasi bilan tasdiqlanish qonunlariga tayanuvchi dunyoqarash.

Ilmiy qarash (yunoncha "idea" - g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bitimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. Imiy qarash ilmiy dunyoqarashdan farqlanib, uning shakilanishi uchun asos vazifasini o'taydi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun aqliy va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish muhimdir. Bu davrda bolalar bilimni o'rganish bilan birga mustaqil fikrlash, turli qarashlarni tahlil qilish va xatolarini tan olish qobiliyatlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, dunyoqarashni kengaytirish ularning olam, jamiyat va hayotiy hodisalarga munosabatini boyitadi. Dunyoqarash shaxsning bilim, e'tiqod, tajriba va faoliyatini tizimli tarzda belgilab beradi va ilmiy, falsafiy, diniy, estetik, ijtimoiy-siyosiy kabi





turlarga bo‘linadi. Ilmiy dunyoqarash esa shaxsni mantiqiy, asoslangan qarorlar qabul qilishga yo‘naltiradi va aqliy o‘sishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1."Umumiy pedagogika" O‘z.Res.Oliy ta‘lim Tosh-2018 "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018 Mavlonova va boshqalar.

2."Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" Tosh-2013 "Nihol" nashriyoti 2013-yil P.Ishmuhammedov, M.Yo‘ldashev

3."Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari" tosh.O‘z.Res.Fanlar akademiyasi :Fan" nashriyoti 2006

4.A.Xoliqov "Pedagogik mahorat" o‘quv qo‘llanma T.: "Iqtisod-moliya" 2010 M.X.To‘xtaxodjayeva va boshqalar.

5."O‘zbek pedagogikasi antologiyasi" Tosh-2010 K.Hoshimov, M.Ochilov va boshqalar

